

WEB DIZAYNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Ruziqulova Muxayyo Ruziqulovna

Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi.

Maxsus fan o'qituvchisi. Fan: Web dasturlash va dizayn

Annotatsiya: Ushbu maqolada Web dizayning asosiy xususiyatlari, Web-dizaynda grafikadan foydalanish, Web texnologiyada qo'llaniladigan dasturlash tillari, Web – sahifada grafik elementlarni joylashtirish haqida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Web dizayn, grafika, Web texnologiya, dasturlash tillari, grafik elementlar

Kirish: Web - dasturlash internet-texnologiyalarining yangi va jadallik bilan takomillashayotgan sohasiga aylanib ulgurgan. Web – sahifalarni tayyorlash va ularni internetda aks ettirishdan maqsad turli xil axborotlarni ma'lumotnoma tarzida berish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni reklama qilish, adabiy asarlar, musiqa va rasmlarni keng omma uchun tarqatish kabi muammolarni hal qilishdir. Foydalanuvchilarga biror bir mavzudagi axborotni taqdim qiluvchi sayt puxta o'ylangan, mukammal ishlangan va har doim yangilanib turuvchi axborotlarga ega bo'lgan sahifalardan tashkil topadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Bugungi kunda web dasturlash sohasi kosmik tezlik bilan takomillashmoqda. Yangi texnologiyalar va g'oyalar maxsus kompaniyalar va korporatsiyalar tarafidan ishlab chiqarilishi bilan birga oddiy dasturchilar tomonidan ham yaratilmoqda. Gipermatnli axborot tizimi axborot uzellari to'plamidan, bu uzellarda aniqlangan gipermatnli aloqalar to'plamidan, shuningdek uzal va aloqalarni boshqarish instrumentidan iboratdir.

World Wide Web texnologiyasi – bu internetda tarqatilgan gipermatnli tizimlarni boshqarish texnologiyasidir va bunga asosan, u gipermatnli tizimlarning umumiy qoidalariga mos kelishi zarur. Ya'ni yuqorida sanab o'tilgan gipermatn tizimlarining tashkil qiluvchilari web tizimida ham bo'lishi lozim. Web-dizayn – bu web – sahifa tuzish jarayonidir. Web – sahifani jihozlash uchun kerak matnlar va grafik fayllarni tayyorlab olish joiz. Bundan tashqari oddiy matnlarni HTML tiliga tarjima qilish uchun dasturiy vositaga ega bo'lish darkor.

Natijalar:

Web –sahifalarni tayyorlash va ularni internetda aks ettirishdan maqsad turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, turli axborotlarni ma'lumotnoma sifatida berish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni reklama qilish, adabiy asarlar, musiqa va rasmlarni keng omma uchun tarqatish, shuningdek shu kabi maqsadlarda web – sahifalar tuziladi va

internetda joylashtiriladi. Foydalanuvchilarga biror mavzudagi axborotni taqdim qiluvchi sayt puxta o'ylangan, mukammal ishlangan va har doim yangilanib turuvchi axborotlarga ega bo'lgan uy sahifasidan tashkil topadi.

Birinchisi mukammal tayyorlangan web – sayt muallifiga foyda keltiradi. Bunda uning sahifani mukammal tayyorlash qobiliyati paydo bo'ladi va uning mohirligini reklama qiladi. Ikkinchi turdagi foyda internet yordamida sotilgan mahsulotlardan, axborot qidiruv tizimlaridan, saytlarga reklama joylashtirishdan olindi. Tijorat maqsadidagi internet loyihalar tayyorlash uchun ko'p vaqt va mehnat ajratish kerak bo'ladi. Web dasturlovchiga yangi loyiha tuzishi uchun kompyuter va boshqa texnik vositalardan tashqari ma'lum bir dasturiy vositalar ham lozim bo'ladi. Rasm va grafikalar WWW uchun har doim kerak bo'ladi. Bu ekranda bir vaqtda ham tasvirni, ham matni ko'rishga imkoniyat beradigan internetning yagona vositasi sanaladi.

Ko'plab brauzerlar GIF va JPEG grafik formatlarini quvvatlab turadilar. Bular Internetdagi grafikaning ommalashgan standart formatidir. Formatlarni kodlashtirishda tasvir siqiladi va natijada juda kichik o'lchovga ega bo'ladi. Barcha zamonaviy grafik dasturlar bu ikkala formatni quvvatlab turadilar. GIF shtrixli tasvirlar Web – sahifaning rasmiylashtirish grafik elementlari uchun ideal sanalsa, JPEG esa, odatda yarim tovushli grafikani kodlashtiradi.

Muhokama:

Tasvirlar faylining ajrata olishi va o'lchami. Web tasvirlari faqat displey ekranida joylashgani tufayli, ularning ajrata olishini dyuymdagi piksellarda o'lchash texnik tomondan to'g'ri bo'ladi. Ajrata olishni o'lchashning boshqa birligi – dyuymdagi nuqtalar soni bosma tasvirlarning ajrata olishiga aloqador va bosmadan chiqaradigan qurilmaning ajrata olishiga bog'liq bo'ladi. Grafikaning real o'lchamlari displeyning ajrata olishiga bog'liq bo'lganligi tufayli, Web-muhit uchun dyuymlarda o'lchash nomaqbul bo'lmoqda. O'lchashning yagona muhim birligi piksel bo'lmoqda. Tasvirni 72 ppi ajrata olish bilan yaratish qulaydir, bunda piksellardagi umumiy o'lchamlarga diqqat qaratish zarur. Web da grafika yaratish vaqtida dyuymnlarni umuman foydalanmaslik mumkin. Tasvirning sahifadagi boshqa tasvirlar bilan taqqoslangan o'lchami va brauzer oynasining umumiy o'lchami muhimdir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Web-dizayn – bu Internet - texnologiyalarining yangi va tez rivojlanayotgan sohasidir. Kichik va o'rta biznesning internetdan foydalanish darajasi o'sib borishi natijasida web-dizayn sohasi perspektiv sohaga aylanib bormoqda. Bu esa o'z o'rnida web-dizaynerlarga va web-dasturlovchilarga bo'lgan ehtiyojning oshib borishini ko'rsatmoqda. Tijorat maqsadidagi internet loyihalar moliyaviy foyda olish uchun ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Zokirova T.A., Sharipov B.A., Rasulova N.A. "Web - dasturlash" fanidan o'quv qo'llanma – T.: TDIU, 2009.
2. Zikov S.V. Dasturlash. Ob'ektga yo'naltirilgan yondashuv. Akademik bakalavr uchun darslik va seminar. Yurayt nashriyoti. 2018.
3. Gnidenko I.G. Dasturlash texnologiyalari va usullari. Amaliy bakalavr uchun darslik. Yurayt nashriyoti. 2018.
4. Levin M.P. Web-sayt yaratish bo'yicha qo'llanma: HTML, CSS, grafikalar, animatsiya, reklama + DVD video kursi. M.: Nashriyot uyi: Triumf., 2007.